Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Rayxon Izatovna Bakayeva*
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
✉ rayhonbakayeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

mazkur maqolada o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Funksional savodxonlikning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni, uning shaxsning ijtimoiy moslashuvi, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, kommunikativ hamda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, interaktiv ta'lim metodlari, loyiha asosida o'qitish, madaniyatlararo yondashuv, kross-dissiplinar integratsiya, ta'limni shaxsiylashtirish, metodik materiallarni boyitish va tadqiqot faoliyatini tashkil etishning o'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

funksional savodxonlik, pedagogik imkoniyatlar, interaktiv ta'lim, loyiha asosida o'qitish, kross-dissiplinar yondashuv, madaniyatlararo kompetensiya, ta'limni shaxsiylashtirish, tadqiqotchilik kompetensiyasi.

DOI: 10.5281/zenodo.21743523

Kirish. Dunyo miqyosidagi globallashuv va texnologik evolyutsiya davrida yoshlarning jamiyatdagi o'rnini topishi va o'z intellektual salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun mutlaqo yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Bitiruvchilarda doimiy o'zgaruvchan ijtimoiy-texnik muhitga moslashish, axborotlarni tanqidiy qayta ishlash va samarali kommunikatsiyaga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish hayotiy zaruriyatga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, maktab o'quvchilarining funksional savodxonligini tizimli-tuzilmaviy jihatdan tadqiq etish va ushbu jarayonning metodologik asoslarini kengaytirish obyektiv zaruriyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy globallashuv sharoitida shaxsning muvaffaqiyatli sotsializatsiyasi va professional o'sishi nafaqat fundamental bilimlar bazasi (lingvistik va matematik savodxonlik) bilan, balki ijodiy tafakkur, samarali kommunikatsiya, kollaborativ ko'nikmalar hamda yetakchilik va tashabbuskorlik kabi integral sifatlar majmuasini egallash bilan bevosita bog'liqdir. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning kognitiv va ijtimoiy-hissiy salohiyatini uyg'unlikda rivojlantirishni strategik zaruratga aylantirmoqda.

Asosiy qism. Funksional savodxonlik ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun maktab oldidagi juda muhim vazifalardan biri bu kerak bo'lganda kasbini tezda o'zgartira oladigan, yangi ijtimoiy rol va funksiyalarni o'zlashtirgan, raqobatbardosh, harakatchan shaxsni tarbiyalashdir. Chunki barcha funksional ko'nikmalar maktabda shakllanadi hamda bugungi kunda maktab ta'limi o'quvchilarni zamonaviy dunyoga moslashishga tayyorlashi kerak bo'lmoqda.

"Ta'lim –2030" Inchxon deklaratsiyasida "barcha yoshlar va kattalarning funksional savodxonlik va hisoblash ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlash va ularning faol fuqarolar sifatida jamiyat hayotida to'liq ishtirokini kuchaytirish uchun o'quv imkoniyatlarini ta'minlash kerakligi"[1] alohida ta'kidlab o'tilgan. Ta'lim

[1]Цянь Тан Инчхонская декларация и ЦУР 4 – Образование-2030: Рамочная программа действий. 2015.

olish huquqining ajralmas qismi barcha sharoitlarda adolatli va samarali ta'lim natijalariga olib keladigan sifatli ta'limni ta'minlash hisoblanadi. Sifatli ta'lim deganda o'quvchilarning keyingi ta'lim uchun asos bo'ladigan funksional savodxonlik va hisoblash ko'nikmalarini egallashi nazarda tutiladi. Bu barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini qondiradigan tegishli pedagogik yondashuvlar asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadigan, malakali, o'qitilgan, yaxshi maosh oladigan va motivatsiyalangan o'qituvchilar tomonidan o'qitiladigan o'qitish usullari va dasturlarini, shuningdek, xavfsiz sog'lom, gender tenglik, inklyuziv va yetarli resurslarga ega qulay o'quv muhiti talab qiladi. Ushbu deklaratsiyada 2030-yilga qadar butun dunyo yoshlari funksional savodxonlikka ega bo'lishi kerakligi ta'kidlanib, ta'lim oluvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish strategik yondashuvlardan biri sifatida aytib o'tilgan [9] .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri etib mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish; dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish" vazifalari belgilangan [1].

Zamonaviy ta'limning vazifasi o'quvchilarning maktabda olgan bilim va ko'nikmalarini muayyan hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini baholash, bitiruvchilarni hayotga tayyorlash, ularning hayotda o'zlariga munosib o'rinni egallashiga ko'maklashish, ya'ni funksional savodli, muvaffaqiyatli shaxslarni tarbiyalashdan iborat bo'lmoqda.

Funksional savodxonlik –bu insonning o'zi yashab turgan jamiyatda to'liq faoliyat olib borishi, turli sohalar, muloqot va ijtimoiy munosabatlardagi hayotiy vazifalarni hal qilishi uchun hayot davomida doimiy ravishda olingan barcha bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalana olish, hayotiy maqsadlarga erishish va kundalik funksiyalarni bajarish, jamiyatda to'liq ishtirok etishi uchun ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatidir. Insonda funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun quyidagi *pedagogik imkoniyatlar* yaratilishi zarur hisoblanadi:

Interaktiv o'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kam, seminarlar soni esa ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyat yaratilishi, kichik guruhlarda jamoa bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Loyiha asosida o'qitish. Loyihaga asoslangan ta'limda o'quvchilar e'tibor markazida bo'lib, real hayotga asoslangan mavzular va muammolarni o'rganadilar va unga hamkorlik orqali g'ayrioddiy yechim topadilar. Unda darsning asosiy ishtirokchilari o'quvchilarning o'zlari bo'lib, o'qituvchining vazifasi o'quvchilarga dars berish o'rniga ularga yordamchi bo'lishdir. Ushbu ta'lim usulining o'ziga xosligi bu uning moslashuvchanligidadir, zero u har bir fanga mos keladi, yosh jihatidan esa yosh bolalar va o'smirlardan tortib kattalargacha loyihaga asoslangan ta'lim qo'llanilishi mumkin.

Madaniyatlararo elementlar. Turli madaniyatlarni o'rganish va ular bilan bog'liq matnlarni tahlil qilish, turli millat vakillarining madaniyatini tushunish, ular bilan muloqot qilish va samarali muloqot qilish qobiliyati, ya'ni madaniy kompetentsiyaga ega bo'lish orqali insonlar bilan ijobiy munosabatlar rivojlanadi. Og'zaki va yozma nutq og'zaki muloqotning bir qismi bo'lib, ular madaniyatlararo muloqotda e'tiborga olinadi. O'qituvchilar nafaqat o'z o'quvchilariga madaniyatlararo muloqot qanday sodir bo'lishini taqdim etishlari va tavsiflashlari kerak, balki madaniyatlararo muloqotda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan o'yinlar yoki simulyatsiyalar kabi amaliy vositalarni ham qo'llashlari zarur [3].

Kross-dissiplinar yondashuv. Fanlar orasida integratsiya qilish, o‘quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun turli fanlardan bilimlarni birlashtirish orqali o‘quvchilar bir mavzu bo‘yicha bilimga ega bo‘ladilar, lekin ayni paytda barcha fanlar bilan tanishadilar. Har bir o‘qituvchi darsning o‘ziga xos jihatini yaratishda ishtirok etadi va uni o‘z mavzusini bilish prizmasi orqali ochib beradi. Natijada o‘quvchilar osonlikcha qo‘llashlari mumkin bo‘lgan tizimli bilimlarga ega bo‘ladilar [2]. Zamonaviy ta’limda kross-dissiplinar yondashuv - bu o‘quvchilarning murakkab muammolarni hal qilish uchun turli sohalardagi bilim va ko‘nikmalarni birlashtiradigan usul. Bu yondashuv voqelikni yanada yaxlit idrok etishni ham talab etadi. Bunda o‘quvchidan kreativ va tanqidiy fikrlash, turli manbalardan olingan axborotni tahlil qilish, manbalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashni talab qiladi. Turli bilim sohalarining kesishuvi yangi g‘oyalar va original yechimlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ta’limni shaxsiylashtirish. O‘quvchi shaxsi va uning mustaqil ta’lim faoliyatiga qaratilgan yondashuv sifatida shaxsiylashtirilgan ta’lim o‘quvchining qiziqishlari va tajribasini hisobga oladi. Shaxsiylashtirilgan ta’lim quyidagi tamoyillar bilan tavsiflanadi:

har bir o‘quvchiga individual yondashuvni izlash;

o‘quv materialining murakkabligi, optimal sur’ati va mazmunini mustaqil tanlash qobiliyati;

kafolatlangan va batafsil teskari aloqa;

zamonaviy texnika va o‘qitish modellaridan foydalanish;

zamonaviy dunyoda talab qilinadigan ko‘nikmalarga o‘rgatish;

rivojlanish uchun motivatsiya uchun misollar keltiradigan madaniy muhitni yaratish [7].

Tashkiliy faoliyatlar. Madaniy tadbirlar, seminarlar va konferensiyalar tashkil etish orqali o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantiriladi. Har bir insonning faolligi shaxs sifatida shakllanishining asosiy omili inson shaxsining mohiyatini tashkil etuvchi kuchlarning namoyon bo‘lishidir. Faol inson o‘z qobiliyatlari, bilim, ko‘nikma va mahoratini uzluksiz ravishda takomillashtiradi. U shu asnoda o‘zligini anglaydi, faol shaxs sifatida jamiyatda o‘zini namoyon qiladi. Shaxs faolligining rivojlanish tendensiyalari mehnat, o‘qish, o‘yin, muloqot jarayonida amalga oshadi [6].

Metodik materiallarni boyitish. Uslubiy materiallar esa o‘qituvchi va o‘quvchilarga yordam berish uchun maxsus materiallarni o‘z ichiga olgan uslubiy nashrlar bo‘lib, bu o‘qituvchining o‘qitiladigan materialning mazmuni, uni o‘rganishning eng samarali usuli haqidagi fikrlari natijasidir. Bu o‘qituvchi va o‘quvchining darsdagi faoliyat shakllarini belgilaydi. Uslubiy materiallarga uslubiy tavsiyalar, uslubiy ko‘rsatmalar, individual darslarning konspektlari, ma’ruza matnlari kiradi [8]. Har bir o‘qituvchi turli manbalardan (kitoblar, internet resurslari, multimedia) foydalanib, o‘quvchilar uchun qiziqarli va samarali materiallar tayyorlash zarur.

Tadqiqot faoliyati. O‘quvchilarning mustaqil tadqiqot ishlarini olib borishga rag‘batlantirish ba’zi bir metodlarini o‘zlashtirish, o‘zining tadqiqotchilik pozitsiyasini aniqlash, amalga oshirayotgan kichik tadqiqotini yana davom ettirish, vaqt o‘tishi bilan tadqiqotchilik ko‘nikmasini kompetensiya darajasiga yetkazilishiga imkon beradi [5]. Tadqiqot ishini yozishga o‘rgatish, ilmiy maqolalar yozishida ko‘maklashish orqali 10-11-sinf o‘quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalari rivojlanadi. Tadqiqotchilik kompetensiyasi deganda tanlangan muammoni yechishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mustaqil bilishga yo‘naltirilgan tadqiqotchilik jarayonida shakllanadigan shaxsiy ko‘nikmalar nazarda tutiladi [4]. Natijada o‘quvchilarda kelajakda o‘z ishini taqdim eta olish, o‘z-o‘zini boshqarish, egallagan bilim, ko‘nikmasini taqdimoti asosida real namoyish etishga o‘rganish ko‘nikmalari rivojlanib boradi.

Savol berish va muhokama. O‘quvchilarda savol berish va fikrlarni muhokama qilishni rag‘batlantirish ularning dars jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydi. Muhokama jarayonida o‘quvchi biror xulosaga kelishdan oldin o‘zgalar fikrini tinglaydi, har tomonlama o‘ylaydi, fikr yuritadi. Bunda suhbat, debat, munozara kabi usullar samarali natija beradi.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimida maktab o‘quvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Funksional savodxonlik o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini real hayotiy vaziyatlarda samarali qo‘llay olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammolarni mustaqil hal etish hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi.

Maqolada tahlil qilingan pedagogik imkoniyatlar, jumladan, interaktiv o‘qitish metodlari, loyiha

asosida ta’lim, madaniyatlararo yondashuv, kross-dissiplinar integratsiya, ta’limni shaxsiylashtirish, metodik materiallarni boyitish, tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda savol-javob va muhokama metodlarini samarali qo‘llash o‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishning muhim omillari ekanligi asoslandi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning kommunikativ, tadqiqotchilik, hamkorlikda ishlash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Shu bois, umumiy o‘rta ta’lim tizimida funksional savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, o‘qituvchilarning metodik salohiyatini oshirish hamda ta’lim jarayonini o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Natijada zamonaviy jamiyat talablariga mos, raqobatbardosh, ijodkor va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash uchun mustahkam pedagogik asos yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni.
2. Dusbayev I. R. XXI asr – fanlararo integratsiya asri , international scientific and practical conference ”Science, education and innovation: problems, solutions and prospects” may 17-18, 2024.C. 354–356 b.
3. Ixtiyorova F., Mamayoqubova S. Madaniyatlararo muloqot va madaniyatlararo kompetentsiya shartlari // Новости образования: исследование в XXI веке. 2023. № 1 (16(100)). С. 474–478.
4. Qaraxonova L. O‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetentligini rivojantirishda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorlik munosabatlari // Science and innovation. 2023. № 12 (2). С. 379–381.
5. Qaraxonova L. M. Loyihalash usuli o‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish omili sifatida // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023. (9). С. 239–242.
6. Raxmanova M., Mirjalilova B. O’quvchilar ijtimoiy faolligini oshirish – ijtimoiy zaruriyat sifatida // Academic research in educational sciences. 2021. № 4 (2). С. 492–503.
7. Булаева М. Н., Зубкова Я., Мельников Д. Д. Персонализированный подход в образовании // Проблемы современного педагогического образования. 2022. (77–3). С. 4.
8. Губарева Н., Родионова О. Методические материалы как основной содержательный элемент деятельности обучения // Теория и практика современной науки. 2016. № 17 (11). С. 979–983.
9. Цянь Тан Инчхонская декларация и ЦУР 4 – Образование-2030: Рамочная программа действий. 2015.